

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O'QISH ISHLARINI
TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti

Pedagogika kafedrası òqituvchisi

Umarova Gulzoda Bahodir qizi

Boshlang'ich ta'lim yònalishi 1-kurs talabasi

Norbutayeva Marjona G'olib qizi

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari o'qish faoliyatini samarali tashkil etishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari yoritilgan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, badiiy asarlarni anglash va estetik didni shakllantirishda sinfdan tashqari o'qishning o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari o'qish, kitobxonlik, mustaqil fikrlash, ijodiylik, mustaqillik, metodika, ta'lim samaradorliigi.

Аннотация: в статье рассматриваются научно-теоретические и практические основы эффективной организации внеклассной работы с учащимися начальной школы, анализируется роль внеклассной работы в развитии самостоятельности мышления, понимания произведений искусства и эстетического вкуса учащихся.

Ключевые слова: внеклассное чтение, чтение, самостоятельность мышления, креативность, самостоятельность, методика, образовательная эффективность.

Abstract: this article covers the scientific, theoretical and practical foundations of effective organization of extracurricular activities for primary school students, and analyzes the role of extracurricular activities in developing independent thinking, understanding of works of art, and aesthetic taste in students.

Keywords: extracurricular reading, reading, independent thinking, creativity, independence, methodology, educational effectiveness.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni milliy g'oyalar, ma'naviyat va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalash jarayonida boshlang'ich ta'lim bosqichining o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantirish, ularni badiiy so'z olamiga olib kirish, estetik didini rivojlantirish va ma'naviy ehtiyojini boyitish sinfdan tashqari o'qish ishlari orqali samarali amalga oshiriladi. Respublikada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning 5 ta qarori qabul qilindi,

kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi[1].

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'lim-tarbiya masalasiga oid chiqishlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirmasdan turib, yoshlarning tafakkuri va dunyoqarashini kengaytira olinmasligini deb ta'kidlaydi[2;44]. Shu boisdan, boshlang'ich ta'lim tizimida sinfdan tashqari o'qish faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Sinfdan tashqari o'qish – o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda badiiy adabiyot, ilmiy-ommabop matnlar, xalq ertaklari va she'rlar bilan mustaqil tanishish faoliyatidir. Ushbu jarayon o'quvchining tafakkuri, dunyoqarashi, so'z boyligi va nutq madaniyatini boyitadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu faoliyat shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, ijtimoiy faolligiga va o'z fikrini mustaqil ifoda etish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. K.Qosimova, S.Matchonov, P.Safarova singari metodist-olimlar sinfdan tashqari o'qish jarayonini shaxs faoliyatining ijodiy va mustaqil yo'nalishiga tenglashtiradilar. Ularning ta'kidlashicha, bolaning kitob bilan mustaqil ishlashi unda ichki motivatsiyani, izlanish hissini va estetik tafakkurni rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish ishlarini tashkil etish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: Individual o'qish (har bir o'quvchining qiziqishiga ko'ra kitob tanlash). Guruhli o'qish (kichik jamoa bilan muayyan asarni muhokama qilish). Sinfdan tashqari o'qish kechalari (mualliflar asarlarini sahnalashtirish, o'qish tanlovlari). Kitobxonlik haftalıkları (kitoblar ko'rgazmasi, "Eng faol kitobxon" tanlovi). Kutubxona darslari (kutubxona madaniyatini o'rgatish, bibliografik malaka hosil qilish). O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va tahlilchi rolini bajaradi. U o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqish doirasini hisobga olib, har bir kitobning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri tanlay olishi lozim. Bugungi raqamli davrda o'quvchilarni kitobxonlikka jalb etishda raqamli texnologiyalar va elektron resurslar imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Masalan: "Kutubxona.uz", "Ziyonet", "Kitob.uz" kabi platformalar orqali onlayn kitob o'qish; "QR-kitob" loyihasi yordamida kitoblarga raqamli havolalar yaratish;

Audio-kitoblar orqali eshitish va idrokni rivojlantirish. Bu yondashuv o'quvchining o'qish faoliyatini zamonaviy axborot muhitiga moslashtiradi, o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Sinfdan tashqari o'qishning tarbiyaviy ahamiyati. Sinfdan tashqari o'qish nafaqat bilim manbai, balki tarbiya vositasi sifatida ham muhimdir. O'quvchi o'qigan asarlari orqali: yaxshilik va yomonlikni farqlashni; mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni anglashni; adabiy obrazlar orqali insoniy fazilatlarini o'zlashtirishni o'rganadi. Bu jarayon o'qituvchi rahbarligida amalga oshirilsa, bolalarda badiiy tafakkur, estetik zavq va nutq madaniyati shakllanadi. Sinfdan tashqari o'qish ishlari boshlang'ich ta'limning uzviy

qismi sifatida o'quvchilarning mustaqil fikrlovchi, ijodkor, kitobxon shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi[4;622].

Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchidan: o'qish metodikasini chuqur bilish; o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llay bilish talab etiladi.

Demak, sinfdan tashqari o'qish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish boshlang'ich ta'limda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini mustahkamlashning eng samarali yo'llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/docs/-5160827>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 422 b.
4. Matchonov S., Bakiyeva X. boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 740 b.